

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BAYONXANOVA IRODA FURKATOVNA

**MULOQOT ODOBINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING
DISKURSIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI
(koreys va o‘zbek tillari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

UO‘K: 808.5:811.531+811.512.133

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)
in Philology**

Bayonxanova Iroda Furkatovna

Muloqot odobini ifodalovchi maqollarning diskursiv-pragmatik xususiyatlari
(koreys va o‘zbek tillari misolida)..... 3

Баёнханова Ирода Фуркатовна

Дискурсивно-прагматические особенности пословиц, выражающих этику
речи (на примере корейского и узбекского языков)..... 27

Bayonkhanova Iroda Furkatovna

Discursive-pragmatic features of proverbs expressing communication etiquette
(on the example of Korean and Uzbek) 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BAYONXANOVA IRODA FURKATOVNA

**MULOQOT ODOBINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING
DISKURSIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI
(koreys va o‘zbek tillari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.2.PhD/Fil1793 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ziyonet.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarov Shaxriyor Safarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Musurmanov Erkin Rabbimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Kim Natalya Dekxenovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "7" may soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4828-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "22" aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil "22" aprel dagi № 11 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Z.Nasrullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'.Qo'ldoshev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A.Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida antropotsentrizm g'oyalari va tamoyillarining rivoji tufayli maqollar milliy mentalitetni namoyon etuvchi qurilmalar qatorida qarala boshlandi va shu asnoda etnomadaniy tafakkur ifoda vositasi sifatida alohida qiziqish uyg'otdi. Maqollarni nutqiy muloqotning muayyan ijtimoiy omillar bilan bog'liq holda o'rganish, til va jamiyatning bir-biriga ta'siri masalasiga doir ma'lumotlarni boyitishga xizmat qiladi. Koreys va o'zbek tillari o'rtasidagi muloqot odobini tahlil qilish, har bir tilning pragmatik xususiyatlari va muloqotda qanday kontekstda qo'llanilishiga e'tibor qaratishni talab qiladi. Masalan, salomlashish, minnatdorchilik bildirish, so'rovlar va boshqa muloqot shakllari turli madaniy kontekstlarga mos ravishda o'zgacha bo'lishi mumkin. Bu tahlil madaniy, pragmatik va psixologik jihatlardan ahamiyatlidir.

Dunyo tilshunosligida pragmatik faoliyatni o'rganish yo'nalishi rivoji bilan tilshunoslar nutqdagi maqollarning dinamik xususiyatlariga e'tibor bera boshladilar. Diskursiv-pragmatik yondashuv bizga tilni yangi nuqtai nazardan – muvaffaqiyatli o'zaro ta'sir o'tkazish, so'zlovchi manfaatlarini ilgari surish va hokazolar uchun muloqotda lisoniy birliklarning voqelanishi nuqtai nazaridan o'rganishga imkon beradi. Shuningdek, maqollarning diskursda voqelanishi shartlari ilmiy jihatdan to'liq asoslab berilmagani mazkur muammoni majmuaviy ravishda, zamonaviy tahlil usullari tatbiqida tadqiq qilish zaruratini paydo qiladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda tilshunoslik fanida paydo bo'lgan yangi yondashuvlarda inson omilini “til va tafakkur”, “til – inson – muloqot” kesimlarida ko'rib chiqish g'oyasi olg'a surilayotgan bir paytda o'zbek tilshunosligida ham tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish imkoniyati paydo bo'ladi. Ma'lumki, til bilan bir qatorda etnik guruhning eng muhim belgilaridan biri madaniy qadriyatlar va an'analarning umumiyligidir. Shuningdek, xalq psixologiyasi va falsafasining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadigan lisoniy vositalar tadqiqi markazida maqollar ham joy olgan. Koreys va o'zbek tillarining diskursiv-pragmatik xususiyatlarini taqqoslash, turli millatlar o'rtasidagi kommunikatsiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu, shuningdek, madaniyatlararo anglashilishni yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommallashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi¹ Qarorning qabul qilinishi mutaxassis olimlar oldiga turli tillar tizimini nazariy va amaliy jihatdan batafsil o'rganish vazifasini qo'yadi. O'zbek va koreys tillarini o'rganayotgan talabalar va mutaxassislar uchun muloqot odobini o'rganish, tilni to'g'ri va madaniyatga mos ravishda ishlatish imkoniyatini yaratadi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида хорижий тиллари ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатдан янги босқичга олиб чиқиш чора – тadbirlari тўғрисида”ги 2021 йил 19 майдаги ПҚ-5117-сон Қарори.

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda qator boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy–ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Muloqot odobi, xushmuomalalikning lingvomadaniy, lingvofalsafiy va ijtimoiy masalalari jahon tilshunosligida P.Grice, G.Leech, G.Kasper, R.Lakoff, P.Brown, S.Levinson, N.I.Formanovskaya, I.A.Zimnyaya, A.A.Leontyev, T.G.Vinokur, Ye.I.Petrova, T.V.Shmeleva², koreys tilshunosligida Xvang Byong Sun (황병순), So Xen Sok (서현석), Na Yun Chong (나윤정), Kim Te Kyong (김태경)³ va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan.. O‘zbek tilshunosligida S.Mo‘minov, R.Rasulov, K.Gayubova, Q.Mo‘ydinov, U.Nosirov, Sh.Safarov, G.Toirova, Sh.Raxmutullayev, Sh.Iskandarova, B.O‘rinboyev, A.Soliyevlar⁴ muloqot

² Grice P. Studies in the way of words. – Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1989. – 394 p.; Leech G. Principles of pragmatics. – New York: Longman, 1983. – 250 p.; Kasper G. Interlanguage pragmatics // Learning second and foreign languages. – New York: The Modern Language Association of America. 1998. – Pp. 183-208; Lakoff R. The logic of politeness: or minding your p’s and q’s // Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, 1973. – P. 292-305; Brown P. & Levinson S. Universals of language usage: Politeness phenomena. // Questions and Politeness. – Cambridge: Cambridge University Press, 1978. – Pp. 56-324; Формановская И.И. Речевой этикет и культура общения. – М.: Высшая школа, 1989. – 159 с.; Зимняя И.А. Речевая деятельность и психология речи. – М.: Наука, 1974. – 432 с.; Леонтьев А.А. Психология общения. – М.: Смысл, 1999. – 365 с.; Винокур Т.Г. Говорящий и слушающий. Варианты речевого поведения. – М.: Наука, 1993. – 172 с.; Петрова Е.И. Речевая деятельность и речевое поведение носителей немецкого языка: На материале идиом в речевом жанре детектив: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2004. – 24 с.; Шмелева Т.В. Кодекс речевого поведения // Русский язык за рубежом. 1983. № 1.-е. – С. 72-77.

³ 황병순. 국어인사말 연구 // 배달말, 25 (1), 배달말학. 1999. – 1-25 쪽.; 서현석. 「표준화법 개선을 위한 ‘인사말’ 사용 실태와 // 개선 방안」, 화법연구, 15, 한국화법학회. 2009. – 129-152 쪽.; 나윤정. 사회적 소통을 위한 언어 실태 조사. 서울: 국립국어원, 2017. – 241 쪽.; 김태경. 일반 사회 (공공장소)에서의 언어 예절. 한양대학교 한국어문화원. 특집, 1999. – 73-87 쪽.

⁴ Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Тошкент, 2000. – 235 б.; Rasulov P., Gayubova K., Mўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. Ўқув қўлланма. – Тошкент,

odobining etnosotsiopragsmatik, lingvosotsial, verbal va noverbal kabi masalalarini o'rganagan. Shuningdek, muloqot odobi masalalari B.Raxmatillayeva⁵ tomonidan ikki til doirasida qiyosiy tarzda o'rganilgan. Xususan, G.A.Yusupova koreys va o'zbek tillari nutqiy etiket masalasining sotsiolingvistik jihatlarini qiyosiy aspektida tadqiq etgan. Shuningdek, O'zbekistonda Pan L.A. koreys tili va madaniyatini o'rganishda muhim hissa qo'shgan. U koreys tilining pragmatik jihatlarini, shu jumladan, muloqot odobini va tilning madaniy o'lchovlarini tahlil qilishga katta e'tibor bergan. Uning ishlari, ayniqsa koreys tilining tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohasida katta ahamiyatga ega⁶.

Muloqot odobini ifodalashda maqollarning roli M.S.Kugotova tomonidan qarachay-bolqar va rus tillari doirasida, V.V.Pikalova tomonidan ingliz va rus madaniyati doirasida qiyosiy o'rganilgan. Biroq, o'zbek tilshunosligida muloqot odobi normalarini aks ettiruvchi paremiologik birliklarni tizimli o'rganishga hali alohida e'tibor berilmagan va ushbu birliklarning koreys va o'zbek tillari doirasida pragmatik-diskursiv xususiyatlarining qiyosiy tahlili maxsus tadqiqot mavzusi bo'lmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilayotgan "Diskursning kognitiv, pragmatik va sotsiolingvistik tadqiqi" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar istiqbolli rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi koreys va o'zbek tillarida muloqot odobini ifodalovchi maqollarning diskursiv-pragmatik xususiyatlarini aniqlash va chog'ishtirma tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish.

Tadqiqotning vazifalari:

koreys va o'zbek tilshunosligida muloqot odobini ifodalovchi maqollarning lingvomadaniy, formal va semantik xususiyatlarini aniqlash;

koreys va o'zbek tilida muloqot odobini ifodalovchi maqollarining diskursiv jihatlarini yoritish;

chog'ishtirilayotgan tillar maqollarining pragmatik xususiyatlarini tavsiflash;
maqollarning tarjimada berilishining samarali usullari bo'yicha tavsiyalarni shakllantirish.

2011. – 63 б.; Носиров У. Нутқ маданияти ва давр // Нутқ маданиятига оид масалалар. – Тошкент, 1973. – Б.119-120; Сафаров Ш., Тоирова Г., Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. – Б. 29-32; Раҳматуллаев Ш. Хурмат формаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1973. №1. – Б. 28-30; Искандарова Ш. Ўзбек нутқи одатининг мулоқот шакллари. Филол. фан. н-ди... дисс. автореф. – Самарқанд: 1993. – 25 б.; Ўринбоев Б., Солиев А. Нотиқлик маҳорати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 102 б.

⁵ Рахматиллаева Б.Х. Этикетные формы обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992. – 18 с.; Кахаров Қ. Германияда маданиятлараро нутқий этикет муаммолари // ФДУ. Илмий хабарлар. – Фарғона, 2020. – №3. – Б. 189-191; Турдиева Ҳ.К. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида). Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 23 б.; Юсупова Г.А. Корейс ва ўзбек нутқий этикетларининг социолингвистик тадқиқи. Фил. фан бўйича фалс. док. дисс... автореф. – Тошкент, 2024. – 54 б.

⁶ Пан Л.А. Лексикология корейского языка. – Ташкент: Ташкентский государственный институт Востоковедения, 2012. – 123 с.

Tadqiqotning obyekti sifatida muloqot odobini ifodalovchi koreys va o‘zbek xalq maqollari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini muloqot odobini namoyon etuvchi koreys va o‘zbek xalq maqollarining diskursiv va pragmatik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Mavzuni yoritishda umumiy va maxsus lingvistik tahlil metodlari: tavsiflash usuli, pragmatik va konseptual tahlil hamda qiyoslash metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

koreys va o‘zbek xalq maqollarining struktur-semantik xususiyatlari o‘rganilib, ularda qisqalik, ohangdorlik, qofiya, turg‘unlik, sintaktik jihatdan shaxsi umumlashganlik, shaxsi noma’lumlik kabi umumiy xususiyatlar mavjudligi aniqlangan hamda shu xususiyatlari tufayli proverbal tuzilmalarning ramziy ma’no kasb etishi isbotlangan;

koreys va o‘zbek xalq maqollarining diskurs jarayonida so‘zlovchi va tinglovchining muloqot odobini ifodalash xususiyatlarining lisoniy vositalar tanlovida hamda kommunikatsiya strategiyasini belgilashda muhimligi ochib berilgan;

pragmatik jihatdan maqollar muloqot odobi sifatida donolik va tajribani yetkazish, ijtimoiy tartib, harakatni izohlash va talqin qilish, hazil va tanqid, harakatga undash va rag‘batlantirish, muloqotning kommunikativ-pragmatik samarasini ta’minlovchi, tinglovchi diqqatini jalb qilish kabi vazifalarni bajarishi dalillangan;

tadqiqot natijasida chog‘ishtirilayotgan tillar doirasida maqollarni tarjima qilishda, ularning muqobil (to‘liq yoki qisman) shakli mavjud bo‘lmagan holatda – kalkalash, tavsifiy va psevdomaqol hosil qilish usullari bilan tarjima qilish, samarali ekanligi isbotlangan hamda ushbu usullardan amaliyotda foydalanishga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

muloqot odobini ifodalovchi maqollarning diskursiv-pragmatik xususiyatlariga oid natijalar lingvomadaniyatshunoslik, diskursologiya sohalari uchun muhim nazariy-amaliy tahlil yo‘nalishlari shakllanishiga asos bo‘lishi isbotlangan;

muloqot odobini ifodalovchi maqollarning semantik va formal tadqiqi natijasida erishilgan xulosalardan matn tahliliga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarda foydalanish mumkinligi asoslangan;

maqollarning obrazli tuzilishi va ularning tarjimasini masalalari lug‘atlarini yaratishda manba bo‘lishi mumkinligi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq shakllantirilganligi, qo‘llanilgan tadqiqot usullarining zamonaviyligi, ilmiy-nazariy manbalarning va tahlil qilingan material hajmining nufuzliligi hamda xorijiy va respublika jurnallarida maqolalar chop qilinganligi, chiqarilgan xulosalarning qat’iyligi, tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, koreys va o‘zbek xalq maqollari materiallari asosida muloqot odobi faollashuvining diskursiv, pragmatik, lingvomadaniy, semantik jihatdan tadqiq qilish lisoniy hodisalar tabiatini yanada kengroq va chuqurroq ochib berishga imkon beradi, bu erishilgan natijalarning samaradorligi va istiqbolidan dalolat beradi. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslik nazariy yondashuvlarining amaliy ahamiyatini rivojlantiradi va tarjima muammolarini o‘rganish va hal qilishning yangi usullarini ochib berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati muloqot odobini ifodalashda koreys va o‘zbek maqollarining diskursiv-pragmatik masalalari bo‘yicha muammoning aniq qo‘yilganligi, to‘plangan materiallar tahlili orqali asosli ilmiy xulosalar chiqarilganligi, manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, olingan natijalarning vakolatli tizimlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, koreys va o‘zbek tillarida muloqot odobini ifodalashda maqollarning diskursiv-pragmatik xususiyatlari bo‘yicha amalga oshirilgan tahlillar “Qiyosiy tilshunoslik”, “Nutq madaniyati”, “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Madaniyatlararo muloqot”, “Pragmalingvistika”, “Badiiy tarjima” fanlarini o‘qitishda ahamiyatli hisoblanadi. Ishning tahlilga tortilgan materiallaridan oliy ta‘limning filologiya yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun maxsus kurslar va seminarlar o‘tkazishda, shuningdek, darslik va boshqa o‘quv adabiyotlarini tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Koreys va o‘zbek tillari muloqot odobini ifodalovchi maqollarning diskursiv-pragmatik xususiyatlarining tavsifi va maqollarning tarjimada berilishi masalalari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

koreys va o‘zbek xalq maqollarining struktur-semantik xususiyatlari o‘rganilib, ularda qisqalik, ohangdorlik, qofiya, turg‘unlik, sintaktik jihatdan shaxsi umumlashganlik, shaxsi noma‘lumlik kabi umumiy xususiyatlar mavjudligi aniqlangan hamda shu xususiyatlari tufayli proverbial tuzilmalarning ramziy ma‘no kasb etishi bo‘yicha berilgan xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda Oliy ta‘lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 29-oktabrdagi №2375/02–sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, o‘zbek va koreys muloqot odobini ifodalovchi xalq maqollarining shakl va mazmun jihatdan bir-biriga o‘xshash va farqli jihatlari, maqollarning muloqot odobini ifodalashda suhbatdoshlarning alohida fazilatlari tahlili, magistratura talabalari uchun tashkil etilgan onlayn kurslarda manba bo‘lib xizmat qilgan;

koreys va o‘zbek xalq maqollarining diskurs jarayonida so‘zlovchi va tinglovchining muloqot odobini ifodalash xususiyatlarining lisoniy vositalar tanlovida hamda kommunikatsiya strategiyasini belgilashda muhimligi bo‘yicha olingan natijalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining Erasmus+585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP “CLASS: Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian

universities” (CLASS: “Markaziy Osiyo Universitetlarida kompyuter lingvistikasi bo‘yicha magistratura dasturini ishlab chiqish”) nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 14-noyabrdagi №2529/02–sonli ma’lumotnomasi). Natijada, maqollar tarjimasiga oid ko‘rsatilgan tavsiyalar “Qiyosiy tilshunoslik”, “Lingvistik tahlil metodlari”, “Nazariy grammatika”, “Terminologiya tarjimasini” kabi fanlarning nazariy masalalarini boyitishga xizmat qilgan;

pragmatik jihatdan maqollar muloqot odobi sifatida donolik va tajribani yetkazish, ijtimoiy tartib, harakatni izohlash va talqin qilish, hazil va tanqid, harakatga undash va rag‘bat, muloqotning kommunikativ-pragmatik samarasini ta’minlovchi, tinglovchi diqqatini jalb qilish kabi masalalari bo‘yicha olingan natijalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrdagi 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 14-noyabrdagi №2529/02–sonli ma’lumotnomasi). Natijada, muloqot odobini ifodalovchi maqollarning semantik va formal tadqiqi natijasida erishilgan xulosalardan matn tahliliga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarda foydalanilgan;

tadqiqot natijasida chog‘ishtirilayotgan tillar doirasida maqollarni tarjima qilishda, ularning muqobil (to‘liq yoki qisman) shakli mavjud bo‘lmagan holatda – kalkalash, tavsifiy va psevdomaqol hosil qilish usullari bilan tarjima qilish, samarali ekanligi isbotlangan hamda ushbu usullardan amaliyotda foydalanishga yo‘naltirilgan tavsiyalar kabi vazifalarni bajarishiga oid o‘rinlaridan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi tomonidan 2024-yil sentabr oyi davomida efirga uzatilgan “Assalom Samarqand” ko‘rsatuvi senariylarini shakllantirishda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 30-sentabrdagi №01-07/263-son ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalarida ilgari surilgan muhim ilmiy-ijodiy ahamiyatga ega bo‘lgan taklif va tavsiyalardan teleradiokompaniyaning ko‘rsatuv va eshittirishlarida ham foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan, 3 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 127 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi dalillangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot ob'yekti, predmeti va usullari ko'rsatilgan; ilmiy yangilik ifodalangan, tadqiqotning amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan va ularning nazariy-amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Muloqot odobini ifodalashda maqollarning roli”** deb nomlangan birinchi bobi tilshunoslikda muloqot odobi tushunchasi va uning asosiy tamoyillari, muloqot odobini ifodalovchi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari hamda o'zbek va koreys tili maqollarining shakl va semantik xususiyatlarini yoritishga bag'ishlangan.

Zamonaviy tilshunoslik fanida muloqot odobining holati noaniq, ya'ni muloqot odobi tushunchasining umumiy qabul qilingan aniq ta'rifi mavjud emas. Lingvistik asarlarda ushbu hodisaga turlicha baho berilgan, nutq odobining kommunikativ mohiyati haqida munozaralar olib borilmoqda.

Ushbu mavzuga oid tushunchalarni mazmuniga nisbatan pog'onali tartibda quyidagicha joylashtirish mumkin:

“so'z→nutq→muloqot” va “xulq=odob=etiket→madaniyat”

Aytish joizki, “so'z odobi” tushunchasiga nisbatan “muloqot odobi” tushunchasi kengroq ma'noni ifoda etib, u fikr ifodalashning o'ziga xos bo'lgan hamma xususiyatlarini qamrab oladi. Darhaqiqat, “muloqot” atamasi ko'p hollarda verbal, ya'ni so'z, lisoniy vositalar orqali va noverbal, nolisoniy vositalar (imohora, har xil belgi, nishona, ramz, simvollar) orqali axborot berish va bir-birining ta'siriga ko'ra lisoniy yoki nolisoniy muloqot sifatida talqin qilinadi. “Xulq” so'zi ko'proq noverbal xatti-harakatga nisbatan ishlatiladi. “Etiket” so'zi esa “odob” so'zining ruscha varianti hisoblanadi.

Muloqot odobi muayyan tarzda nutqiy muloqot holati va uning ko'rsatkichlari – suhbatdoshlarning shaxsiyati, muloqot mavzusi, joyi, vaqti, motivi va maqsadi bilan bog'liq. Avvalo, bu qabul qiluvchiga qaratilgan lisoniy hodisalar majmuasidir, zero so'zlovchining kimligi ham muhim hisoblanadi. Muloqot odobining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. **Xushmuomalalik**. Salomlashish, minnatdorchilik va uzr so'rash kabi xushmuomalalik formulalaridan foydalanish;

2. **Hurmat**. Suhbatdoshga uning ijtimoiy mavqeyi, yoshi va jinsini hisobga olgan holda munosabatda bo'lish;

3. **Taktika (sezgirlik)**. Suhbatdoshda salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan mavzulardan qochish qobiliyati;

4. **Ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish**. Muloqotda madaniy va ijtimoiy qoidalarga rioya qilish.

Koreys muloqot odobi an'alarining asosi Konfusiy ta'limotiga borib taqaladi. Koreys jamiyatida mavjud bo'lgan murakkab pog'onali tizim shaxslararo munosabatlar, birinchi navbatda, madaniy va tarixiy omillar tufayli tilda yaqqol namoyon bo'ladi⁷. Koreys tilshunosligida muloqot odobi Xvang Byong Sun (황병순), So Xyn Sok [서현석], Na Yun Jong [나윤정], Kim Txe Yon [김태연], Li Dong Min [이동민], Chong Yu Jin [정유진], Kim Min Jin [김민진], Mun Kim Xyon [문금현], Pak Yong Son [박영선] kabi bir qator olimlarning tadqiqotlarida nazariy asos topgan.

Xong Byong Son koreys madaniyatidagi nutq odob-axloqi masalalariga e'tibor berib, o'z asarlarida muloqotda hurmat, xushmuomalalik va ijtimoiy iyerarxiyaning muhimligini ta'kidlaydi. Olim koreys tilida xushmuomalalikning turli ko'rinishlari mavjudligini va muloqot jarayonida uyg'unlik va hurmatni saqlash uchun murojaatning to'g'ri shaklini tanlash lozim, deb hisoblaydi⁸. Chong Yu Jin va Kim Min Jin ham koreys jamiyatida so'zlar va murojaat shakllarini tanlashga ta'sir qiluvchi qat'iy iyerarxiya mavjudligini ta'kidlaydi. Keksa va katta yoshdagi shaxslarga hurmat bilan munosabatda bo'lish majburiy ekanligini bayon etadi. Shuningdek, olimlarning fikriga ko'ra, koreys madaniyatida Muloqot kontekstini – vaziyatni, suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlarni va ularning ijtimoiy mavqeyini hisobga olish muhimdir. Bu nutqning ohangi va uslubiga ta'sir qiladi⁹.

Maqollar xulq-atvor qoidalarini belgilaydi, voqealar yoki harakatlarga baho beradi. Ularning asosiy shakl va semantik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) **Qisqalik va qofiya.** Maqollar fikrlarni suhbatdoshga tez va ishonchli tarzda yetkazish imkonini beruvchi qisqa bayonotdir. Bir qator olimlar maqollarning ushbu xususiyatlari haqida fikr bildirishgan¹⁰. Masalan, “Ko'z qo'rqoq, qo'l botir” maqolining zamirida uzun hikmat mavjud. U ma'lum bir ishni bajarishni o'ylab turgan shaxsga nisbatan qo'llanilib, unga dalda berishga ko'maklashadi. Ushbu qisqagina hikmat insonni ruhiy tetiklantirishga qodir. Shuningdek, maqollarning ko'pchiligi qofiyalangan bo'ladi. Maqollarning xususiyatlarini ochib berishda “Ziyouz” portali sahifasida joylashtirilgan “O'zbek xalq maqollari”ni tahlilga tortamiz (tahlil uchun barcha o'zbekcha maqollar ushbu saytdan olinadi):

⁷ Юсупова Г.А. Корейс ва ўзбек нутқий этикетларининг социолингвистик тадқиқи. Фил. фан бўйича фалс. док. дисс... автореф. – Тошкент, 2024. – В. 12.

⁸ 황병순. 국어인사말 연구 // 배달말, 25 (1), 배달말학. 1999. – 쪽 15.

⁹ 정유진, 김민진. 그림책 읽기 후 역할극 활동이 유아의 존댓말 학습에 미치는 영향 // 미래유아교육학회지, 18 (2), 2011. – 21-42 쪽.

¹⁰ Даль В.П. Пословицы русского народа. – М.: Художественная литература, 1984. – 612 с.; Жуков В.П. Русская фразеология. – М.: Высшая школа, 1986. – 310 с. Аникин В.П. Русские народные пословицы, поговорки, загадки и детский фольклор. – М.: Учпедгиз, 1957. – 340 с.; Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: АН УзССР, 1964. – 18 с.; Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном. дис. – Тошкент, 2002. – 136 б.; Холмурадова З.Ш. Инглиз ва рус бадиий матнларда французча иборалар ва мақолларнинг қўлланилиши // Humanistic role of language and literature in the contemporary globalization. – Б. 590-592; Юсупова Г.А. Корейс ва ўзбек нутқий этикетларининг социолингвистик тадқиқи. Фил. фан бўйича фалс. док. дисс... автореф. – Тошкент, 2024. – 54 б.

Avval *o'yla*, keyin *so'yla*.

Aytar *so'zni ayt*, aytmas *so'zdan qayt*.

Paremiologik birliklarda turli konseptlar o'z ifodasini topadi va ular obrazlar hamda olamning obyektlarini tasvirlaydi. Stilistik nuqtai nazardan, maqollar ritmik strukturasi va she'riy shakllari bilan ajralib turadi. Maqollardagi evfonik vositalar logik bo'g'in, qofiya va o'xshash tovushlarning takrorini o'z ichiga oladi. Aynan bunday xususiyatlar maqollarning esda qolishida muhim rol o'ynaydi¹¹.

Koreys maqollarida ham qofiya faollashishi mumkin. Tahlil uchun "bluemountain.tistory.com" hamda "wordrow.kr" saytlarida joylashtirilgan "Koreyscha maqollar to'plami" va "Koreys maqollari lug'ati" sahifasidagi koreys maqollaridan foydalaniladi. Masalan: 호랑이 굴에 가야 호랑이 새끼를 잡는다 (horangi kore kaya horangi sekkiryl chamnynda) – *Yo'lbars bolasini tutish uchun yo'lbarsning iniga kirish kerak*. Ushbu maqolda qofiya 호랑이 so'zining takrori, hamda 잡는다 va 가야 qo'shimchalari yordamida faollashgan. Qofiya maqolning asosiy ma'nosini yetkazishga ko'maklashadi va uni yodda saqlashni osonlashtiradi.

Ikkala xalqning maqollarida ritm va ohangdorlikni yaratish maqsadida qofiya va ohangdosh so'zlar faollashadi. Ular maqollarning adabiy va grammatik xususiyatlarini aks ettiradi. Ushbu maqollar bosma manbalarda nashr etiladi, og'izdan og'izga o'tadi va madaniy merosning ajralmas manbai bo'lib qoladi.

2) **Turg'unlik**. Maqollar turg'un birikmalardir. Ular xalqlar tomonidan yaratilgan bo'lib, inson xotirasida saqlanib qolgan. Biroq, idiomalar va maqollar o'rtasidagi barqarorlik darajasi farq qiladi. Idiomalar maksimal darajadagi barqarorlik bilan tavsiflanadi. Leksik tarkib va so'z tartibini hech qanday tarzda o'zgartirib bo'lmaydi. Butun birlikning qiymati ularning tarkibiy qismlarining qiymatlari bilan bog'liq emas.

Maqol ma'lum bir sintaktik tuzilishga yoki grammatik modelga muvofiq tuziladi. Bir modelga ko'ra, maqollarning turli shakllari paydo bo'lishi mumkin. So'zlar tartibi yoki maqolni shakllantirish shakli o'zgarganiga qaramay, ularning tub ma'nosi xuddi shu tarzda yetkaziladi. Masalan: 1) *Aql bo'y bilan o'lchanmas*; 2) *Aql bo'yda emas, o'yda*; 3) *Aql yoshda emas, boshda*.

Keltirilgan uchala maqolning shakli turlicha bo'lsa-da, bir xil mazmunni ifodalaydi. Shuning uchun lug'atlarda ko'pincha maqollarning turli xil variantlari keltiriladi.

Koreys maqollarida ham bir mazmunga ega turli ko'rinishdagi maqollarni uchratish mumkin: 글 속에 글 있고 말 속에 말 있다 (kyl soge kyl itgo mal soge mar itda) – *Matnda matn bor, so'zda bir so'z bor*.

말 속에 뼈가 있다 (mal soge ppyoga itda) – *Gapning suyagi bor*.

Ushbu maqollar har qanday matn, gapda yashirin ma'no mavjud bo'lishini anglatadi. Zero, matn yoki bayonotni yuzaki tushunish yetarli bo'lmasligi mumkin, degan fikrni ta'kidlaydi va chuqurroq yoki yashirin ma'nolarni izlash muhimdir.

¹¹ Холмуродова З.Ш. Инглиз ва рус бадий матнларда французча иборалар ва мақолларнинг қўлланилиши // Humanistic role of language and literature in the contemporary globalization. – Б. 590-592.

Boshqacha qilib aytganda, soʻzlar va matnning maʼnosi qatlamli boʻlishi va har doim ham birinchi qarashda aniqlanmasligi mumkin.

3) **Sintaktik model.** Maqollar toʻliq jumladir. Oddiy jumlar singari, ular turli xil sintaktik modellarga ega: shaxsi umumlashgan, shaxsi nomaʼlum, va shaxssiz.

Shaxsi umumlashgan maqollar. Shaxsi umumlashgan gaplardan anglashilgan ish-harakat grammatik jihatdan maʼlum bir shaxsga oid boʻlsa ham, mazmunan hammaga, umumga qarashli boʻladi¹². Maqollar asosan 2-shaxs birlikda qoʻllanilishi bilan xarakterlanadi:

Ota oldida kek urma, odobingga chek urma.

Sen birovdan kulma, senga ham kulguvchilar bor.

Tuzini yeb, tuzligʻiga tupurma.

Koreyscha maqollardan misol:

가까운 데서 옆드려 다친다 (kakkaun deso opdyryo tachinda) – *Yaqinlashsangiz oʻzingizga zarar yetkazasiz.* Maʼnosi: yoningizda yoki tanish muhitda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan kichik muammolar yoki xavflardan ehtiyot boʻling.

눈에 보이는 것만 믿지 말라 (nune poynyn gotman midji malla) – *Yuzaki koʻrgan narsangizga ishonmang.* Faqat tashqi koʻrinishga ishonmang; baʼzida narsalar tashqi koʻrinishidan maʼlum emas va chuqurroq tushunishga intilish muhimdir.

Bunday maqollar mazmunan har uchala shaxsga taalluqli boʻladi. Suhbatdoshga qaratilgan maqollarda koʻpincha turli xil hayotiy vaziyatlarda foydali boʻlishi mumkin boʻlgan tavsiya, maslahat, taklif yoki koʻrsatmalar ifodalanadi.

Shaxsi nomaʼlum maqollar. Bunday gaplarning kesimi uchinchi shaxs koʻplikda ifodalanadi. Bu jihatdan ular koʻplik shaklidagi shaxsi aniq gaplar bilan sinonimiyani hosil qiladi. Oʻzbek tilida shaxsi nomaʼlum gaplarning kesimi feʼlning –r (–ar, –ur) qoʻshimchali sifat-dosh shaklidan hosil qilinishi mumkin: *Joʻjani kuzda sanaydilar.*

Koreys maqollari: 너무 높은 나무는 잘라야 한다 (nomu nopyn namunyn challaya handa) – *Baland oʻsgan daraxtni kesmoqchi boʻlarlar.* Maʼnosi: agar inson juda yuqori choʻqqilarga yoki natijalarga erishsa, ehtiyot boʻlishi lozim. Maqolda inson umidlarini yoki maqsadlarini nazorat qilishi lozimligi maslahat qilinadi.

Shaxsi umumlashgan gaplarning shaxsi nomaʼlum gaplardan farqi shundaki, shaxsi umumlashgan gaplarda harakat bajaruvchi ikkinchi va baʼzan uchinchi shaxsga oid boʻlib, gap tarkibida ish-harakatni bildiruvchi olmosh-egalar ham mavjud boʻlishi mumkin. Shaxsi nomaʼlum gaplarning kesimlari esa odatda, uchinchi shaxsga oid feʼllar bilan ifodalanib, egasi gap tarkibida ishtirok qilmaydi. Shaxsi nomaʼlum gaplarda ega umumiy kontekstdan ayon boʻlib turadi, ega aniq shaxs yoki shaxslar boʻladi. Shuning uchun ham ega gapda ifodalanmasa kerak.

¹² Абдурахмонов Ф. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 248 б.

Shaxssiz maqollar. Bunday gaplarda ifodalangan ish-harakat yoki biror holat bajaruvchining faol ishtirokisiz yuzaga chiqadi. Ularda ega grammatik jihatdan ifodalanmaydi; shaxsi noma'lum yoki shaxsi umumlashgan gaplardan farqlangan holda, bunday gaplarning ega bo'lagini tiklab ham bo'lmaydi. Bunday gaplarning kesimlari majhul fe'llar yoki majhul fe'l ma'nosida qo'llangan aniq fe'llar vositasida ifodalanadi¹³. Misol:

G'urur – g'urbat,

Kamtarlik – hurmat.

Ko'zdan nari – ko'ngildan nari.

Avval salom, bad'az kalom.

Koreys maqollaridan misol: 천 리 길도 한 걸음부터 (chon li kildo han korymputo) – *Hatto ming li sayohat ham bir qadamdan boshlanadi.* Ma'nosi: hatto eng uzoq va eng qiyin vazifalar ham birinchi qadamdan boshlanadi.

백 번 듣는 것보다 한 번 보는 것이 낫다 (pek bon tynnyn gotpoda han bon ponyn goshi natda) – *Yuz marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan yaxshi.*

4) **Umumiylik, muayyan vaziyatga qo'shilmaslik.** A.N. Gvozdevning so'zlariga ko'ra, maqollar umumlashtirilgan ma'noni ifodalaydi va shuning uchun so'zlovchi ulardagi voqelik yoki harakatni barchaga teng ravishda havola eta oladi [Гвоздьев, 1983]. Ma'noning umumiyligi maqollardagi shaxsi aniq va noaniq jumlalar shaxsi umumlashtirilgan jumlalar bilan ma'no jihatidan birlashishiga olib keladi.

A.N. Baranov va D.O. Dobrovolskiyning ta'kidlashicha, maqollarda ma'no umumiyligi qo'shimcha ravishda universallikni ta'kidlaydigan olmoshlar bilan (hamma, barcha, har kim, har qanday) belgilanadi¹⁴. Masalan:

Har kim o'z tili bilan tirik;

Har mevaning po'chog'i bor,

Har so'zning o'lchovi bor.

Koreys tili maqollarida quyidagi umumlashtiruvchi olmoshlar faol qo'llaniladi: 각각 (kakkak) yoki 모든 (modyn) – *har bir*; 모든 (modyn) yoki 모두 (modu) – *hamma*; 모든 것 (modyn got) yoki 전부 (chonbu) – *barcha*; 모든 종류의 (modyn chongryue) yoki 모든 (modyn) – *har qanday*.

Koreys maqollaridan misol: 각각의 사정이 있다 (gakgage sajongi itda) – *Har bir holat o'ziga xos xususiyatlarga ega.* Mazmuni: Har kimning o'z vaziyati va muammolari bor.

모든 길은 로마로 통한다 (modyn kiryn romaro tonghanda) – *Hamma yo'l Rimga olib boradi.* Mazmuni: Barcha yo'llar bir xil maqsad yoki natijaga olib keladi.

5) **Ko'chma ma'no.** Maqollar ikki xil mazmunga ega (asl mazmun majoziy umumlashtirilgan mazmun bilan birlashtirilgan) bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri yoki asl mazmun – bu uning so'zma-so'z talqinidir. Maqollarda bu matnda tasvirlangan ma'lum bir voqeani anglatadi va maqollarning tarkibiy qismlarining bevosita

¹³ Абдурахмонов Ф. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 248 б.

¹⁴ Баранов А.Н., Добровольский Д.О. Аспекты теории фразеологии. – М.: Знак, 2008. – 53 с.

ma'nosidan kelib chiqadi. Masalan: *Yomonning tili bor, yaxshining – dili*. Maqolning so'zma-so'z talqini: Yomon kishining tili bo'ladi, yaxshi kishining yuragi bo'ladi. Maqolning ko'chma ma'nosi: Yomon inson tiliga kelganini gapiradi, yaxshi inson esa qalbidan, o'ylab gapiradi.

Koreys maqollaridan misol: 물에 빠지면 지푸라기도 잡는다 (mure ppajimyon chipuragido chamnynda) – *Cho 'kayotgan xasga yopishadi*. Maqolning so'zma-so'z talqini: Inson cho'kayotganda xasni ham ushlab oladi. Maqolning ko'chma ma'nosi: Tanqis vaziyatda inson har qanday kichik yordamga muhtoj bo'ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Koreys va o'zbek tilida muloqot odobini ifodalovchi maqollarining diskursiv xususiyatlari**" deb nomlangan. Mazkur bobda muloqot odobini ifodalovchi maqollarning diskursdagi roli, maqollarda muloqot odobini namoyon etuvchi so'zlovchi va tinglovchining fazilatlari o'rganilgan.

O'zbek va koreys xalq maqollariga ko'ra, suhbat mavzusi, muloqot uslubi, matnning stilistik belgisi, so'zlovchining lisoniy, ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi ko'p jihatdan ijtimoiy mavqeyega bog'liq. Shaxsning ijtimoiy mavqeyi qanchalik yuqori bo'lsa, uning so'zlari shunchalik ta'sir kuchiga ega.

Maqollarda ifodalangan muloqot odobi muhim ahamiyatga ega, chunki ular so'zlarning insonlarning idrokiga va xatti-harakatlariga qanday ta'sir qilishini aks ettiradi. Maqollar jamiyatda uyg'un munosabatlarni saqlashga yordam beradigan halollik, ehtiyotkorlik, hurmat va boshqa ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlarini o'rgatadi. Ular odamlar o'rtasidagi munosabatlarni va o'zaro tushunishni yaxshilash uchun kundalik hayotda qo'llaniladigan donolik va amaliy maslahatlar manbai bo'lib xizmat qiladi.

Muloqot odobini namoyon etishda so'zlovchining jinsi, yoshi, oiladagi va jamiyatdagi rolidan tashqari, uning insoniy fazilatlari ham muhim sanaladi:

1) Xushmuomala, tarbiyali, mehribon / qo'pol, g'azablangan, tarbiyasiz:

사람은 말로 평가받는다 (saramyn mallo pyonggapannynda) – *Kishilar so'zlari bilan baholanadilar*. So'zlar insonning ichki holati va xarakterining aksidir. Suhbatdagi muloyim va to'g'ri xatti-harakatlar ijobiy obraz yaratishga xizmat qiladi.

예의가 사람을 만든다 (yeinga saramyl mandynda) – *Muloyimlik insonni shakllantiradi*. Muloyim va to'g'ri xulq-atvor, shuningdek so'zlar yaxshi tarbiya va inson ijobiy obrazining asosidir.

O'zbek maqollaridan misol:

So'z bilan do'st yarat, amali bilan do'stni saqla. Maqolda so'zlardagi xushmuomalalik va mehribonlik do'stlashishga yordam berishi, harakatlar orqali do'stlikni saqlash muhimligi ta'kidlanadi.

Muloqot odobi nuqtai nazaridan xushmuomalalik "zarar yetkazmaydigan" nutqni, suhbatdoshga e'tibor berishni, o'z-o'zini hurmat qilishda kamtarlikni namoyon etishni va hokazolarni anglatadi.

2) Kamtarin / manman, maqtanchoq:

말이 많으면 실수가 많다 (mari manymyon shilsuga mantda) – *Agar siz ko'p gapirsangiz, ko'p xato qilasiz*. Haddan tashqari suhbat xatolar va

tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Bu nima deyish va uni qanday aytishga ehtiyot bo'lish muhimligini ta'kidlaydi.

O'zbek maqollaridan misol:

Gapning qisqasi – yaxshi, qisqasidan hissasi – yaxshi.

Ko'p gap eshakka yuk.

O'zbek xalq maqollarida manmanlik qoralanadi. Muloqot odobi belgisi sifatida kamroq gapirish nasihat qilinadi.

3) Adolatli / adolatsiz:

정직은 최선의 정책이다 (chongchigyn chvesone chongchegida) – *Halollik eng yaxshi siyosatdir.* Adolat va halollik har qanday vaziyatda, har doim eng yaxshi yondashuvdir.

정의는 강물처럼 흐른다 (chongenyn kangmulchorom hyrynda) – *Adolat daryo kabi oqadi.* Adolat, xuddi daryo kabi, to'siqlarga qaramay, o'z yo'lini topadi.

O'zbek xalq maqollaridan misol:

Odil kishi oyday, oqib turgan soyday.

Haqiqatning yuzi – yorug', qo'li – uzun.

Darhaqiqat, adolatli shaxsning yaxshiligi, to'g'riso'zligi, aytgan gapiga amal qilishi uni yanada ulug' qiladi, xalq ishonchini qozinishiga ko'maklashadi.

4) Dono, farosatli / nodon, farosatsiz:

말이 씨가 된다 (mari shiga tvenda) – *So'z urug'ga aylanadi.* So'zlar kuchga ega va natijalarga olib kelishi mumkin. Bu so'zlarni ehtiyotkorlik va mas'uliyat bilan tanlash muhimligini ta'kidlaydi, chunki ular kelajakka ta'sir qilishi mumkin.

말 한마디로 천 냥 빚 갚는다 (mal hanmadiro chon nyang pit kamnynda) – *Bir oqilona so'z bilan 1000 nyan qarzni to'lash mumkin.* Yaxshi va dono so'zlar katta muammolarni hal qilishi va munosabatlarni yaxshilashi mumkin.

O'zbek xalq maqollaridan misol:

Dono aytsa, el aytgani, elning g'amin yeb aytgani.

Dono so'ziga bino qo'yar, nodon – o'ziga.

Donolik insonning hayot tajribasi va haqiqiy bilim darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Donolik, doimiy o'rganish va hayotdan saboq olish orqali hosil bo'ladi. Shunday qilib, o'zbek va koreys maqollari donolik va nodonlikni hayotning turli jihatlarini bilan bog'liq ravishda baho beradi, bu esa insonlarning xulq-atvori, tajribasi va bilim darajasini tushunishga yordam beradi.

5) Botir / qo'rqoq:

용기는 두려움을 이긴다 (yonginyn turyoumyl iginda) – *Jasorat qo'rquvni yengadi.* Maqolda haqiqiy jasorat qo'rquvni yengishga qodirligi ta'kidlanadi. O'zbek tilida ushbu maqolning adekvat shakli mavjud.

용감한 자만이 큰일을 성취한다 (yonggamhan chamani kyniryl songchvihanda) – *Faqat jasur shaxs buyuk ishlarni amalga oshirishga qodir.* Maqolda faqat jasorat va qat'iyat muhim ishlarda muvaffaqiyatga olib kelishi bayon qilinadi.

O'zbek maqollaridan misollar:

Botir ishning boshida, yaxshi kelar qoshiga.

So'z botirligi tilda, er botirligi belda.

Shunday qilib, botirlik, qiyinchiliklarga qaramay harakat qilishni, qo‘rqoqlik esa o‘z muammolarini hal qilishdan qochishni anglatadi. Demak, har ikkala lingvomadaniyatda qo‘rqoqlik maqollarda ko‘pincha xatolar va kamchiliklar bilan bog‘lanadi. Botirlik esa maqollarda ko‘pincha donolik va oqillik bilan bog‘lanadi. Botir odamlar muammolarni batamom hal qilish va qiyinchiliklarga qarshi turish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Koreys va o‘zbek maqollari xalqning donoligi va madaniyatini aks ettiradi. Har ikkala lingvomadaniyat maqollarida muloqot jarayonida adolatli, to‘g‘riso‘z, kamtarin, muloyim, jasoratli, saxiy bo‘lish va ochko‘zlik, manmanlik, adolatsizlik, qo‘pollik, xudbinlik kabi salbiy xususiyatlardan qochish kabi fazilatlarining muhimligi ta’kidlanadi. Ushbu belgilar so‘zlovchining fazilatlarini namoyon etishga ko‘maklashadi.

Tinglovchi asosan so‘zlovchining kommunikativ harakatining faol rolga ta’sir ko‘rsatishga qodir. Birovning fikrlarini tushunish, tinglovchining javob xatti-harakati va nutqning o‘zaro ta’sirini yanada rivojlantirish tinglash sifatiga bog‘liq.

Tinglovchi uchun qoidalar qabul qilingan ifodani tekshirish uchun tavsiya etilgan tizim sifatida taqdim etiladi¹⁵.

Tinglovchining majburiyatlari:

1. Aytilgan nutqni tinglash va tushunish. Agar kimdir nutq so‘zlayotgan bo‘lsa, ishni keyinga qoldirib, u nima haqida xabar berayotganini diqqat bilan tinglash kerak. Birovning nutqiga e’tibor bermaslik muloqot odobi qoidalarini buzish hisoblanadi. Koreys tilida muloqot jarayonida tinglashning ahamiyatini aks ettiruvchi va uning nutqdan ustunligini ko‘rsatadigan maqollarni uchratish mumkin: 청구여문, 청심여시 (chongguyomun, chongshimyoshi) – *O‘z ko‘zingiz bilan ko‘rgandek, donolik bilan tinglang*. Ushbu maqol faol va diqqat bilan tinglash muhimligini ta’kidlaydi.

Koreys maqollarida gapirish qobiliyati qadrlanishi bilan birga, tinglash qobiliyati ham ustuvor ahamiyatga ega ekanligi bayon qilinadi: 말은 좋은데, 귀가 좋은 사람은 더 좋다 (maryn chohynde, kviga chohyn saramyn do chotda) – *So‘zlash yaxshi, lekin tinglashni biladigan shaxs bundan ham yaxshiroqdir*. Ushbu maqol zamirida tinglash qobiliyati gapirish qobiliyati kabi qadrlanishi nazarda tutiladi.

귀는 두 개, 입 하나 (kvinyn tu ge, ib hana) – *Quloq ikkita, og‘iz bitta*. Bu maqolda ko‘proq tinglash va kamroq gapirish kerakligi ta’kidlangan.

2. Faol e’tibor va nolisoniy belgilar. Koreys madaniyatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘z ishorasi tinglovchining faolligini ko‘rsatadi. Bu muloqot jarayonida so‘zlovchining ko‘zlariga tik qarash va tushunishni tasdiqlash bilan amalga oshiriladi. Bosh chayqash, tabassum va yuz ifodalari qiziqish va jalb qilishni ko‘rsatishga yordam beradi. Ushbu qo‘llab-quvvatlash belgilari ijobiy muloqotni yaratish uchun muhimdir.

설득하려면 먼저 듣기 (soldygharyomyon monjo tytgi) – *Ishonch hosil qilish uchun avval tinglang*. Mazkur maqol nutqqa ishonch hosil qilish va muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun faol tinglashning muhimligini bildiradi.

¹⁵ Рождественский, Ю.В. Теория риторики. – М.: Добросвет, 1999. – 23 с.

눈과 귀를 열이라 (nungwa kviryl yorora) – *Ko‘zlarinigizni va quloqlaringizni oching*. Maqol ko‘rish va eshitish qobiliyatiga diqqat-e’tiborli va sezgir bo‘lish lozimligini tavsiflaydi.

3. Hurmat va rasmiylik. Yoshi kattaroq yoki yuqori maqomga ega shaxslar bilan muloqot qilishda rasmiy muomala va muloyim tildan foydalanish muhimdir. Ko‘rsatilgan hurmat ularning so‘zlariga bo‘lgan ta’sirga ham bog‘liq, ya’ni tinglovchi javobida hurmat va ehtiyotkorlikni ko‘rsatish muhimdir.

사람은 존경으로 대하라 (saramyn chongyongyro tehara) – *Odamlarga hurmat bilan munosabatda bo‘ling*. Ushbu maqol maqomi va mavqyeidan qat’iy nazar, barcha odamlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish muhimligini ta’kidlaydi.

머리가 낮으면 길이 열리다 (moriga najjymyon kiri yollida) – *Bosh egilsa, yo‘l ochiladi*. Demak, kamtarinlik va hurmat hayotda yangi imkoniyatlar va yo‘llarni ochadi.

4. Nutqqa to‘sqinlik qilmaslik. Koreys madaniyatida suhbatdoshni to‘satdan to‘xtatish qo‘pol harakat hisoblanadi. Tinglovchi izoh berishdan yoki savol berishdan oldin so‘zlovchining nutqi tugashini kutishi kerak. Suhbatdagi to‘xtamlarni kutishi va so‘zlovchiga uning so‘zlari haqida o‘ylash uchun vaqt berish kerak. Bu muloqotda uyg‘unlik va hurmatni saqlashga yordam beradi.

참을 인자 세 번이면 살인도 면한다 (chamyl inja se bonimyon sarindo myonhanda) – *Agar siz uch marta sabr etsangiz, qotillik ayblovidan ozod bo‘lasiz*. Mazmuni: sabr-toqat hatto qotillikdan ham uch karra qutqaradi. Ushbu maqolda sabr-toqat va diqqat bilan tinglash jiddiy muammolar va nizolarning oldini olishi ta’kidlanadi.

5. Savol berish va izoh qoldirish. Savollar hurmat bilan, bosimsiz berilishi kerak. Samarali muloqot uchun tinglovchining sharhlari tanqidiy emas, balki konstruktiv va qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lishi kerak. So‘zlovchi tomonidan bildirilgan fikrni tushunganlikni va qadrlanishini ko‘rsatish muhimdir. Bu holda “Men nimani nazarda tutayotganingizni tushunaman” yoki “Bu to‘g‘ri fikr” kabi iboralardan foydalanish mumkin.

Koreyslarda shunday maqol bor: 받는 소는 소리치지 않는다 (pannyn sonyn sorichiji annynda) – *Qabul qiluvchi sigir ma’ramaydi*. Ushbu maqolning mazmuni shundan iboratki, yordam, qo‘llab-quvvatlash yoki foyda olganlar odatda o‘z minnatdorchiligini baland ovozda bildirmaydilar yoki shikoyat qilmaydilar. Boshqacha qilib aytganda, kimdir foydali yoki kerakli narsani olganda, biror narsani talab qiladigan yoki undan norozi bo‘lganlardan farqli o‘laroq, jim turishi yoki bu haqda gapirmasligi mumkin.

Yuqorida keltirilgan odob me’yorlari uyg‘unlikni va hurmatli muloqotni saqlashga yordam beradi, bu Koreya jamiyatida yuqori baholanadi.

O‘zbek madaniyatida ham tinglovchi oldiga qo‘yiladigan bir qator odob me’yorlari mavjud. Buni quyidagi maqollar mazmunida kuzatish mumkin:

Aytguvchi nodon bo‘lsa, tinglovchi dono kerak.

Har qanday so‘zlovchining gapi dono va oqilona bo‘lmaydi. Tinglovchi aytilayotgan gapning “mag‘zini chaqa bilishi” kerak. Ya’ni so‘zlovchining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fikrlarini tahlil eta olish lozimdir.

O‘zbek maqollarida yuzaki, diqqat bilan tinglamaslik qoralanadi. So‘zlovchi suhbatdoshdan javob kutadi, shuning uchun tinglovchi uning nutqini tushunishi kerak va buning uchun diqqat-e’tiborli bo‘lish va boshqa narsalarga chalg‘imaslik kerak.

